TA'LIM SOHASINI RAQAMLASHTIRISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVASIYALAR

Ahmatov Nodirbek Musaevich – GulDPI 2-bosqich talabasi
e-mail: lmran0102@mail.ru

Nimanidir o'rganishga bo'lgan kuchli istak
bu allaqachon 50 foiz muvaffaqiyatdir.
Deyl Karneygi

Annotatsiya. Maqolada bugungi kun raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liqligi buni aynan ta'lim sohasida qo'llash zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning muhim jihatlari keltirib o'tilgan. Zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanishni ta'lim sohasi bo'yicha samaradorligini oshirish va yetuk kadrlarni tayyorlashni bir necha muhim taraflarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, zamonaviy yondashuv, innovatsiya, kadr

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar va yondashuvlardan kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib bo'lgan va bu ta'lim sohasidan ham chetda qolmadi, ularni o'quv jarayoniga faol qo'llashmoqda. Texnologiyalar ta'lim jarayonining turli jabhalarida qo'llaniladi: ma'lumotlarni almashishdan tortib, onlayn tarzda uy vazifalarini qabul qilishgacha. Raqamli qurilmalarning sezilarli afzalliklari ularni auditoriyada muhim elementga aylantiradi. Keling, texnologiya o'qitishni qanday osonlashtirishi va o'qituvchilar ulardan foydalanishi kerakligini aniq ko'rsatuvchi tadqiqotni ko'rib chiqaylik.

Ta'lim tizimi kundan kunga yangilanib turishi kerak. Sababi shundaki, zamonaviy yondashuvlar asosida qurilgan darslar hech qaysi o'quvchining diqqatidan chetda qolmaydi. Shu sababli, ko'plab olimlarning aynan shu borada bir qancha tajribalar o'tkazishgan. Ma'lum bo'lishicha, har qanday yoshdagi o'quvchining diqqati uzog'i bilan yigirma daqiqa davomida bir joyda bo'lar olar ekan. Bu degani o'quvchi yigirma daqiqagina mavzu ma'lumotlarni tushuna oladi. Demak bundan ko'rib turibdiku o'quvchilarni diqqatini butunlay dars yo'natirish uchun biz innovatsion loyihalardan, zamonaviy yondoshuvlardan foydalanishimz kerak. Qanday qilib o'quvchining diqqatini uzoqroq vaqt davomida bir joyda ushlab turish mumkin? O'quvchining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun o'qituvchi qanday metodlardan foydalanishi kerak? Shu kabi savollar tug'ilishi tabiiy hol albatta, ayniqsa bo'lajak va ko'p yillik tajribaga ega bo'lmagan o'qituvchilarda. Bunday vaziyatda zamonaviy innovatsiyalar bizga qo'l keladi. Chunki bu kabi yangiliklar hamma uchun qiziq albatta. Chunki buni hayot

timsolida ko‘p kuzatganmiz har qanday o‘quvchi zamonaviy texnologiyalardan foydalananishni hohlaydi.

Zamonaviy yondashuvlardan foydalanishni afzilliklari ko‘p albatta. Biz muhimlariga to‘xtalamiz. Masalan: birinchidan, malumotlarni tez va oson almashish; ikkinchidan, mavzu matnini yoritib berishda video darsliklar va taqdimotlardan foydalanangan holda o‘tish mavzuni yaxshi tushunish imkonini beradi; uchinchidan, yangi dunyoviy ma'lumotlarga ega bo‘lish, ulardan foydalana olish va fikr almashinish imkonini beradi; to‘rtinchidan, an'anaviy metodlar o‘rniga yangi raqamli metodlardan foydalanishga imkon yaratadi. Shu kabi afzalliklar juda ko‘p biz esa ayrimlarini sanab o‘tdik. Demak XXI asr texnologiya asri ekanini unutmagan holda biz ham ta'lim sohasiga bunday zamonaviy yondashuvlarni qo‘shishimiz kerak ekan.

Bundan tashqari biz yana bir nechta tadqiqotlarni ko‘rib chiqishimiz mumkin. O‘z navbatida, auditoriyada texnologiyadan foydalanish o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qilishga yordam beradi. Masalan, sinfda onlayn viktorinalar o‘tkazishda o‘quvchilar sinfdoshlariga qaraganda to‘g‘ri javobni tezroq topish uchun diqqatini viktorinaga qaratadi va hech kimni eshitmagan holda belgilaydi. Bu esa o‘quvchini o‘zi fikrlashga o‘rgatgan holda darslarni o‘quvchilarni qiziq o‘tishligini ta'minlaydi va muhokama qilish bilan yakunlanadi.

Albatta raqamli texnologiyalar vaqtni tejaydi va bilimlarni baholashni vaqtida bilishga imkon beradi. Raqamli texnologiya yordamida o‘qituvchilar o‘quvchilarning ishini tezroq tekshirib baholaydilar, bu esa ularga o‘qitishning boshqa jihatlariga e’tibor qaratish imkonini beradi. O‘quv platformalarida javoblarni avtomatik tekshirish bilan testlar mavjud. Talaba o‘ziga qulay vaqtda shunday test topshirishi, natijalarini bilib olishi va xatolarini saralashi mumkin. Bunday testlar bizning istitutimiz – Guliston Davlat Pedagogika Institutida ham qo‘llanilmoqda. Aynan biz ham fanlardan qanday qilib o‘zlashtirganimizni bilish maqsadida bunday testlarni ishlaymiz. Diqqatimiz aynan testda bo‘lishligi, qulayligi va javobni aynan test ishlab bo‘lgandan keyinoq olishimiz raqamli texnologiyalardan foydalanganimiz sabablidir.

Yana bir narsani takidlab o‘tish kerakki til o‘rganish borasida zamonaviy yondashuvlar juda muhim sanaladi. Ta'lim dasturlari va ilovalar ham o‘quvchilarga materialni eslab qolishlariga yordam beradi. Shunday qilib, chet tilini o‘rganish uchun mobil qurilmalar uchun ilova o‘quv jarayoniga borishda, tanaffus paytida yoki istalgan boshqa vaqtda ishlatilishi mumkin, bu esa tilni o‘rganishni ta'minlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytmoqchimanki, zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar o‘quv jarayoni olib borishda juda samarali va o‘qituvchi bilan o‘quvchini munosabatga kirishishida eng maqul yo‘l bo‘lsa kerak. Innovatsion texnologiyalar darsning borishini yaxshilashi, qiziqroq o‘tishligi, mavzuning to‘liq yoritishligi va o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham biz ta'lim sohasida raqamli texnologiyalardan va zamonaviy yondashuvlardan hamda innovatsion texnoligiyalardan foydalanib dars o‘tishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Raxmonova, M. (2022). ZAMONAVIY TADBIRKOR AYOL PSIXOLOGIYASINING KASBGA YO‘NALGANLIGI. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2(6), 204-206.